


**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2021- yil yanvar-dekabr oyi uchun dastlabki ma`lumot)**

Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yil yanvar-dekabr oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1089,4 mln.AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 124,7 mln.AQSh dollariga ko'paydi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar- dekabr, mln.AQSh dollari)**

Ma`lumot uchun: Namangan viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 494,6 mln.AQSh dollariga (30,0 % ga ko'paydi) va import hajmi 594,8 mln.AQSh dollariga (20,6 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 100,2 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**NAMANGAN VILOYAT
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar- dekabr, mln.AQSh dollari, ulushi, % da)**

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	305,0	202,1	102,9	28,0
Xitoy Xalq Respublikasida	263,4	75,6	187,9	24,2
Qozog'iston	108,3	41,2	67,1	9,9
Turkiya	105,1	40,1	65,1	9,6
Qirg'iz Respublikasi	79,0	69,1	9,9	7,3
Belarus	21,6	2,2	19,4	2,0
Hindiston	18,4	0,7	17,6	1,7
Ukraina	18,1	11,4	6,7	1,7
Polsha	16,9	7,2	9,7	1,6
Germaniya	16,1	2,8	13,3	1,5

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 78 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (28,0 %), Xitoy Xalq Respublikasida (24,2 %), Qozog'istonda (9,9 %), Turkiyada (9,6 %), Qirg'iz Respublikasida (7,3 %), Belarus (2,0 %) va Hindiston (1,7 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iziston va Qozg'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Germaniya, Turkiya va Hindiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (305,0 mln.AQSh.dollari), Qirg'iz Respublikasi (79,0 mln.AQSh.dollari) Ukraina (4,7 mln.AQSh.dollari), Tojikiston (3,2 mln.AQSh.dollari), va Portugaliya (4,7 mln.AQSh.dollari), shular jumlasidandir. Qolgan 15 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, ming.AQSh.dollari)**

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Rossiya Federatsiyasi	197867,2	224122,2	304970,7
Eksport	123798,2	136314,2	202060,6
Import	74069,0	87808,0	102910,1
Saldo	49729,3	48506,2	99150,5
Xitoy Xalq Respublikasi	264132,4	214357,4	263439,8
Eksport	47176,1	43001,9	75585,8
Import	216956,3	171355,4	187854,0
Saldo	-169780,1	-128353,5	-112268,2



Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Qozog'iston	82706,5	91688,4	108315,0
Ekspport	39304,4	44390,1	41183,9
Import	43402,1	47298,3	67131,1
Saldo	-4097,7	-2908,2	-25947,2
Turkiya	126961,6	56745,1	105125,9
Ekspport	20484,3	17452,1	40074,4
Import	106477,3	39293,0	65051,5
Saldo	-85993,0	-21840,9	-24977,0
Qirg'iziston Respublikasi	88059,2	98525,8	79022,5
Ekspport	82395,2	89857,8	69081,4
Import	5664,0	8668,1	9941,1
Saldo	76731,3	81189,7	59140,3
Belarus	4644,5	3138,4	21599,2
Ekspport	1992,8	2111,6	2243,5
Import	2651,7	1026,8	19355,7
Saldo	-659,0	1084,7	-17112,1
Hindiston	11855,3	17118,5	18365,7
Ekspport	1169,2	426,5	738,2
Import	10686,1	16692,0	17627,5
Saldo	-9517,0	-16265,4	-16889,3
Ukraina	15672,9	11236,5	18101,8
Ekspport	8200,4	8374,3	11411,2
Import	7472,5	2862,2	6690,7
Saldo	728,0	5512,1	4720,5
Polsha	9450,3	9629,4	16936,5
Ekspport	3503,2	7159,4	7193,0
Import	5947,2	2470,0	9743,6
Saldo	-2444,0	4689,5	-2550,6

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Germaniya	26202,6	20296,4	16132,6
Ekspport	5315,2	3798,8	2827,3
Import	20887,4	16497,6	13305,3
Saldo	-15572,2	-12698,9	-10478,0
Koreya Respublikasi	21902,7	17322,4	12411,0
Ekspport	329,8	299,7	430,6
Import	21573,0	17022,6	11980,4
Saldo	-21243,2	-16722,9	-11549,8
Turkmaniston	3602,7	5686,5	11938,1
Ekspport	1191,8	3244,4	4910,5
Import	2410,9	2442,1	7027,6
Saldo	-1219,1	802,3	-2117,1
Fransiya	790,4	5258,3	9139,0
Ekspport	105,4	0,4	0
Import	685,0	5257,9	9139,0
Saldo	-579,6	-5257,5	-9139,0
Italiya	7064,9	5406,0	8968,8
Ekspport	773,0	2311,0	1920,1
Import	6291,9	3095,0	7048,7
Saldo	-5519,0	-783,9	-5128,5
Eron Islom Respublikasi	5586,6	3206,8	8203,5
Ekspport	1585,7	659,4	1752,4
Import	4000,9	2547,5	6451,2
Saldo	-2415,1	-1888,1	-4698,8
Litva	9278,0	4766,1	6961,3
Ekspport	552,0	399,3	793,5
Import	8726,0	4366,9	6167,8
Saldo	-8174,0	-3967,6	-5374,3

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Malayziya	8624,3	7739,5	6537,4
Eksport	0	0	0
Import	8624,3	7739,5	6537,4
Saldo	-8624,3	-7739,5	-6537,4
Tojikiston	2722,6	5744,0	6520,7
Eksport	1946,0	4221,3	4891,8
Import	776,6	1522,7	1628,9
Saldo	1169,4	2698,6	3263,0
Tayvan	1907,0	1225,7	6266,1
Eksport	250,7	0	42,7
Import	1656,8	1225,7	6223,4
Saldo	-1406,1	-1225,7	-6180,7
Portugaliya	1869,2	1430,2	5135,4
Eksport	1834,5	1129,6	4917,2
Import	34,8	300,7	218,2
Saldo	1799,7	828,9	4699,0

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yil yanvar-dekabr oyida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 50,8 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi 25,2 % ga ko'paygan.

**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-dekabr, % va ulushi)**




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2021- yil yanvar-dekabr oyida 2020- yilning shu davriga nisbatan ko'paydi (24,1 % ga) va jami TSA dagi ulushi 49,2 % ni tashkil etdi.

NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-dekabr)

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning eksportyorlar soni 487 tani tashkil etib, ular tomonidan 494,6 mln.AQSh.dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 30,0 % ga ko'paydi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,1 % ni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari (72,5 %), Oziq-ovqat mahsulotlari (18,0 %) va Mashinalar va transport asbob-uskunalari (2,0 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar- dekabr, ulushi, % da)





- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Qora metal
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Sanoat mahsulotlari
- Xizmatlar
- Boshqalar

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar- dekabr)**

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	494,6	338,9	155,7	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	89,0	63,2	25,8	18,0	18,6	16,6
Qora metallar	4,2	3,8	0,4	0,8	1,1	0,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	8,9	7,8	1,1	1,8	2,3	0,7
Sanoat tovarlari	358,5	242,7	115,8	72,5	71,7	74,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	10,0	8,7	1,3	2,0	2,5	0,8
Xizmatlar	14,6	10,8	3,8	2,9	3,2	2,4
Boshqalar	9,4	1,9	7,5	2,0	0,6	4,8

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR
VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-dekabr, % va ulushi,)




2021- yilning yanvar-dekabr oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 40,9 %), Xitoy Xalq Respublikasi (15,3 %), Qirg'iz Respublikasi (14,0 %), Qozog'iston (8,3 %), Turkiya (8,1 %), Ukraina (2,3 %) va Polsha (1,5 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 90,3 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni saqlab qolmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2020- yining mos davriga nisbatan 66 davlatdan 54 davlatga kamaydi.

**NAMANGAN VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-dekabr,% da)**



- *Rossiya Federatsiyasi*
- *Xitoy Xalq Respublikasi*
- *Qirg'iz Respublikasi*
- *Qozog'iston*
- *Turkiya*
- *Ukraina*
- *Boshqa davlatlar*

**TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTIDAGI YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-dekabr)**

Davlatlar	Ming.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Rossiya Federatsiyasi	136314,2	202060,6	110,1	148,2	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	43001,9	75585,8	91,2	175,8	4	2
Qirg'iz Respublikasi	89857,8	69081,4	109,1	76,9	2	3
Qozog'iston	44390,1	41183,9	216,7	92,8	3	4
Turkiya	17452,1	40074,4	21,2	229,6	5	5
Ukraina	8374,3	11411,2	102,1	136,3	6	6
Polsha	7159,4	7193,0	204,4	100,5	7	7
Portugaliya	1129,6	4917,2	61,6	435,3	17	8
Turkmaniston	3244,4	4910,5	272,2	151,4	11	9
Tojikiston	4221,3	4891,8	216,9	115,9	8	10
Afg'oniston	3488,6	4498,7	722,4	129,0	10	11
Germaniya	3798,8	2827,3	71,5	74,4	9	12
Belarus	2111,6	2243,5	106,0	106,2	14	13
Misir	335,1	2098,5	100,0	626,3	26	14
Moldovo Respublikasi	1079,8	2054,9	70,9	190,3	18	15
Italiya	2311,0	1920,1	299,0	83,1	13	16
Eron	659,4	1752,4	41,6	265,8	21	17
Guruziya	642,6	1492,4	132,8	232,3	22	18
Pokiston	3199,6	1279,3	1297,2	40,0	12	19
Belgiya	128,2	1266,2	439,8	987,9	32	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlar kiradi.

Xizmatlar eksporti hajmi 14573,6 ming.AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,9 % ini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 1,8 martaga ko'payganligi kuzatildi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 358,5 mln.AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 72,5 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 150,1 % ga o'sdi.


Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-dekabr)

2021- yil yanvar-dekabr oyida import hajmi 594,8 mln.AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 120,6 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (34,2 %), Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (18,4 %) hisobiga to'g'ri keldi.

IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)



- *Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar*
- *Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar*
- *Qora metal*
- *Mashinalar va transport asbob-uskunalari*
- *Boshqalar*

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,5 mln.AQSh dollariga ko'paydi va 594,8 mln.AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1,3 mln.AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-dekabr)**

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	594,8	214,8	380,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	109,8	72,3	37,5	18,4	33,6	9,9
Qora metallar	58,3	38,2	20,1	9,8	17,8	5,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	106,7	15,9	90,8	17,9	7,4	23,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	203,7	21,1	182,6	34,2	9,8	48,0
Boshqalar	116,3	67,3	49,0	19,7	31,4	12,9


Importning eng katta ulushi, jumladan, Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar mahsulotlar (33,6 %) Qora metallar (17,8 %), hamda MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (48,0 %), Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (23,9 %) va hissasiga to'g'ri keladi.


Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki,

2020- yilning mos davriga nisbatan Mashina va asbob-uskunalar 34,2 % Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 18,4 % ga oshdi, kimyo mahsulotlari va buyimlari importining ulushi 17,9 % ga oshdi, ga oshdi.

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI

(yanvar-dekabr, % va ulushi)





Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlat-lar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 31,6 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini 17,3 % ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.


**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-dekabr)**

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'zni	
	2020- y.	2021-y.	2020- y.	2021-y.	2020- y.	2021-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	171355,4	187854,0	79,0	109,6	1	1
Rossiya Federatsiyasi	87808,0	102910,1	118,5	117,2	2	2
Qozog'iston	47298,3	67131,1	109,0	141,9	3	3
Turkiya	39293,0	65051,5	36,9	165,6	4	4
Belarus Respublikasi	1026,8	19355,7	38,7	1885,0	31	5
Hindiston	16692,0	17627,5	156,2	105,6	6	6
Germaniya	16497,6	13305,3	79,0	80,6	7	7
Koreya Respublikasi	17022,6	11980,4	78,9	70,4	5	8
Qirg'iz Respublikasi	8668,1	9941,1	153,0	114,7	10	9
Polsha	2470,0	9743,6	41,5	394,5	20	10
Fransiya	5257,9	9139,0	767,6	173,8	13	11
Italiya	3095,0	7048,7	49,2	227,7	16	12
Turkmaniston	2442,1	7027,6	101,3	287,8	21	13
Ukraina	2862,2	6690,7	38,3	233,8	18	14

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'zni	
	2020- y.	2021-y.	2020- y.	2021-y.	2020- y.	2021-y.
Malaziya	7739,5	6537,4	89,7	84,5	11	15
Eron	2547,5	6451,2	63,7	253,2	19	16
Tayvan	1225,7	6223,4	74,0	507,7	30	17
Litva	4366,9	6167,8	50,0	141,2	14	18
Latviya	1556,7	4261,4	13,8	273,8	25	19
Argentina	1422,7	3089,0	43,2	217,1	28	20

2021- yil yanvar-dekabr oyi yakuni bo'yicha Namangan viloyati tomonidan 66 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

**NAMANGAN VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI
(2021- yil yanvar-dekabr % da)**



Olti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Hindiston va Germaniya) jami importning 76,3 % ini tashkil qiladi, bu 453879,4 ming.AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va Hindiston tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:(69)-211-72-00**